

**G.V.PLEXANOV NOMIDAGI ROSSIYA IQTISODIYOT  
UNIVERSITETINING TOSHKENT SHAHRIDAGI FILIALI  
HUZURIDAGI DSc.22/30.12.2019.I.100.01 RAQAMLI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**MELIBOYEV AZIZ ROZAQOVICH**

**MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASIDA PROFESSIONAL  
TA'LIMNI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.10 – “Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti”**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**

**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of the abstract dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)**

**Meliboyev Aziz Rozaqovich**

Mehnat bozori transformatsiyasida professional ta'limni takomillashtirish .....

5

**Мелибоев Азиз Розақович**

Совершенствование профессионального образования в условиях трансформации рынка труда.....

29

**Meliboev Aziz Rozakovich**

Improving Vocational Education in the Transformation of the Labor Market...

57

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....

61

**G.V.PLEXANOV NOMIDAGI ROSSIYA IQTISODIYOT  
UNIVERSITETINING TOSHKENT SHAHRIDAGI FILIALI  
HUZURIDAGI DSc.22/30.12.2019.I.100.01 RAQAMLI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASIDA PROFESSIONAL  
TA'LIMNI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.10 – “Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti”**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**

**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Iqt2619 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.reu.uz](http://www.reu.uz)) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portali ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz))da joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abduraxmanov Odil Kalandarovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy oponentlar:**

**Arabov Nurali Uralovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Amanov Otabek Amankulovich**  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

**Yetakchi tashkilot:**

**Mehnat bozori tadqiqotlari instituti**

Dissertatsiya himoyasi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filiali huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.22/30.12.2019.I.100.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil “\_\_” “\_\_\_\_\_” kuni soat \_\_. dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani Shaxriobod ko'chasi, 3-uy. Tel.: (99871) 262-43-50, faks (71) 262-43-60, e-mail: info@reu.uz

Dissertatsiya ishi bilan G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filialining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ - raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani Shaxriobod ko'chasi, 3-uy. Tel.: (99871) 262-43-50, faks (71) 262-43-60, e-mail: info@reu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “\_\_” “\_\_\_\_\_” kuni tarqatildi.

(2023-yil “\_\_” “\_\_\_\_\_” dagi “\_\_” -raqamli reyestr bayonnomasi).

**K.X. Abduraxmonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
O'zR FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori,  
professor

**Z.G. Shakarov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD)

**Z.Ya. Xudayberdiyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda keyingi yillarda iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalari asosida ustuvor rivojlanishi sharoitida kasbiy malakaga ega mutaxassislar tayyorlashda yo'l qo'yilgan kamchiliklar yosh kadrlar ishsizlik darajasining ortishiga olib kelmoqda. "Jahonda 15-24 yoshdagi yoshlarning ishsizlik darajasi 17,9 foizni tashkil etmoqda. Ushbu ko'rsatkich Janubiy Osiyoda-24,1 foizni, Lotin Amerikasi va Karib dengizi mamlakatlarida-21,4 foizni, Yevropa mamlakatlarida-20,4 foizni, Shimoliy Amerikada-10,0 foizni, O'zbekistonda-24 foizni"<sup>1</sup> tashkil etmoqda. Bugungi kunda yoshlar ishsizligining oldini olishda mehnat bozori va kasbiy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashni o'zaro bog'liqlikda tashkil etish hamda mehnat bozori talablari asosida malakali o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlash va bandlikni ta'minlash dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarda mehnat bozori va unga ma'lum bir kasb va mutaxassislikka ega bo'lgan kadrlar tayyorlash tizimi transformatsiyasining asosiy mezon va ko'rsatkichlari, kasbiy ta'lim tizimi integratsiyasiga metodologik yondashuvlar asosida mehnat bozori va kasbiy ta'lim xizmatlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ustuvor darajada olib borilmoqda. Bu borada malakali kadrlar tayyorlash holati va rivojlanish tendensiyalari hamda mehnat bozoriga o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlashga bo'lgan ehtiyojini aniqlash uslubiyoti, ularning ish bilan bandligini ta'minlashga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni ish bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish yo'nalishidagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida mehnat bozori talablariga ko'ra malakali o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlashda ta'lim tizimini xalqaro ta'lim tizimi bilan o'zaro uyg'unlashuvini ta'minlash orqali bitiruvchilar malakasini xalqaro mehnat bozorida ham tan olinishini ta'minlashga ustuvor yo'nalish sifatida qarab kelinmoqda. "Mamlakatda yoshlarni kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish, kambag'allikni ikki baravarga qisqartirish maqsadlari, 400 mingdan ortiq maktab bitiruvchilari va 150 mingdan ortiq yoshlarni kasbiy ta'limga jalb qilib, ularni mehnat bozoriga kirib kelishi mo'ljallanmoqda"<sup>2</sup>. Bu borada mehnat bozoridagi kadrlarga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish, mehnat bozorida o'rta bo'g'in kadrlarga bo'lgan real ehtiyojni aniqlash, aynan ish o'rinlari uchun o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlashning xalqaro tajribalarga asoslangan yangi mexanizmlarini ishlab chiqish (takomillashtirish) va yoshlarni zamonaviy kasb-hunar egallashi uchun iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish mezanizmlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan tadqiqotlarni chuqurlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2018-yil 25-yanvardagi PF-5313-son "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va

<sup>1</sup> <https://www.macrotrends.net/countries/WLD/world/youth-unemployment-rate>

<sup>2</sup> Mirziyoyev Sh.M. "2022-yil 15-iyun kuni aholini kasb-hunarga tayyorlash va monomarkazlar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari" yuzasidan videoselektor yig'ilishidagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/5265>

kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 6-sentyabrdagi PF-5812-son "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4804-son "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 31-avgustdagi PQ-5241-son "Oliy va o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari o'rtasida ta'lim jarayoni hamda tarmoq tashkilotlari bilan ishlab chiqarish amaliyoti uzviyligini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-maydagi 394-son "Mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlarni kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 15-maydagi 287-son "O'zbekiston Respublikasida kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to'g'risida", 2020-yil 7-avgustdagi 466-son "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Ta'lim tizimidagi transformatsion o'zgarishlar mamlakat mehnat bozori, mehnat bozori rivojlanishining konseptual modellari, yetarli kasbiy bilim va tajribaga ega malakali kadrlarni tayyorlash va rivojlanishining ayrim yo'nalishlari iqtisodiyot asoschilari bo'lgan: A.Smit, D.Rikardo, J.M.Keyns, P.Samuelson, A.Marshall, A.Pigu, M.Fridman<sup>3</sup>larning ilmiy ishlarida har tomonlama tadqiq etilgan.

MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlarining tadqiqot ishlarida kasb-hunar ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash, ta'lim tizimi va mehnat bozorining o'zaro aloqalari, rivojlantirish yo'nalishlarining ayrim jihatlarini: P.F.Anisimov, B.S.Volkov, K.G.Kyazimov, S.D.Reznik, Ye.L.Rudneva, P.A.Stepanov,

---

<sup>3</sup>Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов / Пер. с англ. Е.М.Майбурда. – М.: Эскимо, 2007; Рикардо Д. Сочинения. – М.: Наука, 1961; Кейнс Дж. Общая теории занятости, процента и денег / Пер. с англ. Н.Н.Любимова: под ред. Л.П.Куланова. – М.: Гелиос АРВ, 1999. – 321 с.; Самуэльсон П.Э. Экономика / Пер. с англ. 16-е изд. - М.: Издательский дом "Вильямс", 2003. – 688 с.; Маршалл А. Принципы экономической науки. В 3-х томах / Пер. с англ. - М.: Прогресс, 1993.- 832 с.; Пигу А. Теория безработицы. – М.: Дело, 1999. – 251 с.; Friedman Milton. Essays in Positive Economics.- Chicago University of Chicago Press, 1953.

I.N.Sherer, L.V.Konoshko, L.S.Mariyen, D.M.Melnikova<sup>4</sup> va boshqa iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida o‘rganilgan.

O‘zbekiston iqtisodchi olimlari K.X.Abduraxmanov, S.S.G‘ulomov, X.F.Rashidov, S.A.Karimbekov, M.M.Xolmuxamedov<sup>5</sup>, Z.Ya.Xudoyberdiyev, B.X.Umurzakov, N.K.Zokirova, N.U.Arabov, T.M.Magrupov, K.A.Eshpo‘latov<sup>6</sup>, U.M.Alijonov, E.M.Muxiddinovlarning tadqiqot ishlarida mehnat bozorining shakllanishi hamda mehnat bozori ehtiyojlari asosida kadrlar tayyorlashni takomillashtirish jihatlari, O‘zbekistonda ta‘lim tizimi, bandlik va mehnat munosabatlari siyosati, shu jumladan, kasb-hunar ta‘lim sohasini isloh qilish, kasb-hunar ta‘limi bitiruvchilarini ish bilan ta‘minlash masalalari o‘z aksini topgan.

Mamlakatimizda mutlaqo yangi professional ta‘lim tizimining tashkil etilgani, ichki va tashqi mehnat bozori uchun o‘rta bo‘g‘in kadrlar tayyorlashning yangi yo‘nalishlari belgilangani, mehnat bozori transformatsiyasi va professional ta‘limni rivojlantirishda o‘zaro munosabatlarni yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

Mehnat bozorida ish beruvchi korxonalar va tashkilotlarning rolini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini malakali kadrlar bilan ta‘minlash hamda ta‘lim tizimida malakali o‘rta bo‘g‘in kadrlariga qo‘yiladigan malaka talablari o‘zgaruvchanligi bois, professional ta‘lim xizmatlarining unga muvofiqligini ta‘minlash muammolari yuzaga keladi. Bu esa, o‘z navbatida, ushbu tadqiqot

---

<sup>4</sup>Анисимов П.Ф. Социально-экономические основы регионализации среднего профессионального образования. - М.: ООО «Издательский дом «Новый учебник», 2004. - 240 с.; Волков Б.С. Основы профессиональной ориентации: учебное пособие. Академический Проект, 2007. - 333 с.; Кязимов К.Г. Проблемы и пути совершенствования воспроизводства квалифицированных рабочих. Монография. – М.: Директ-Медиа, 2016. – 224 с.; Кязимов К.Г. Совершенствование профессиональной подготовки и развития человеческих ресурсов. Монография. – М.: Директ-Медиа, 2016. – 284 с.; Резник С.Д. Управление системой содействия трудоустройству молодежи: региональный аспект: монография. - Пенза: ПГУАС, 2009. - 144 с.; Руднева Е.Л. Формирование государственного заказа региональной системе профессионального образования: монография. - Кемерово: ГОУ КРИПО, 2009. -200 с.; Степанов П.А. Интеграция уровней образования как основа развития системы профессионального образования в регионе. - М.: Образование и Информатика, 2008. - 200 с.; Шерер И.Н. Социально-экономическая трансформация регионального молодежного рынка труда: монография. - М.: Зерцало М, 2011. - 192 с.; Коношко Л.В. Зарубежный опыт в области регулирования рынка труда. Вестник Хабаровского гос. универ. экономики и права. № 1-2 (102-103), 2020. – с. 48-54; Мариен Л.С., Мельникова Д.М. Разработка концепции прогнозирования потребности экономики в квалифицированных кадрах при переходе России на цифровую модель развития. Вестник РЭУ им. Г.В. Плеханова. № 6 (108), 2019. с. 62-70.;

<sup>5</sup> Абдурахманов К.Х., Зокирова Н.К. Человеческое развитие: учебник. – Т.: ФГБОУ ВПО «РЭУ им.Г.В.Плеханова», 2014. – 320 с.; Образование и человеческое развитие: мировая практика и опыт Узбекистана / Под научной редакцией акад. Гулямова С.С., акад. Абдурахманова К.Х. – Т. Ташкентский государственный экономический университет, 2004. – 169 с.; Рашидов Х.Ф. Особенности развития среднего специального, профессионального образования в Узбекистане. -Т.: Фан, 2004. – 288 с.; Каримбеков С.А.. Интеграционные процессы в образовании. - Монография. – Т.: Фан, 2008. - 137 с; Холмухамедов М.М. Совершенствование системы государственной поддержки занятости молодежи на рынке труда (на примере Самаркандской области). – Диссертации на соискание ученой степени кандидата наук. – Т.: 2011.

<sup>6</sup>Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 3-nashri. – Т.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “FAN” nashriyot davlat korxonasi, 2019. – 592 b.; Худойбердиев З.Я. Развитие системы подготовки кадров для сферы предпринимательства (на примере малого и среднего бизнеса): Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. – Ташкент, 2002. – 44 с; Xolmo‘minov Sh.R., Xomitov K.Z., Arabov N.U., Bobanazarova J.X., Irmatova A.B. Mehnat bozorining samarali rivojlanish istiqbollari. Monografiya. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2017. – 184 b; Magrupov T.M., Алимова Х.А., Аликариев Н.С. Методика прогнозирования спроса на специалистов с высшим образованием. – Т.: Министерство высшего и среднего специального образования, 2000. – 94 с.; Eshpo‘latov K.A. Zamonaviy iqtisodiyotda mehnat bozori va kasbiy ta‘lim uzviyligini ta‘minlashni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018.; Рашидов Х.Ф. Особенности развития среднего специального, профессионального образования в Узбекистане. - Т.: Фан, 2004. - 288 с.

mavzusining tanlanishiga asos sifatida xizmat qiladi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №FM-5 "O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va liberallashtirish sharoitida ijtimoiy mehnat munosabatlarini takomillashtirishning ilmiy asoslari" mavzuidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** mehnat bozorida o'rta bo'g'in kadrlariga qo'yilgan talablar transformatsiyasi jarayonida malakali kadrlarni tayyorlash uchun professional ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

mehnat bozorida xususiy sektordagi kadrlarga bo'lgan real ehtiyojni aniqlash orqali professional ta'lim muassasalarida o'rta bo'g'in kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

professional ta'lim tizimi rivojlangan mamlakatlarning ijobiy tajribalarini o'rganish asosida mamlakatda mehnat bozori va professional ta'lim tizimi integratsiyasi bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

professional ta'lim muassasalari bitiruvchilarining mehnat bozorida o'z yo'nalishi va malaka darajasi bo'yicha ishga joylashish imkoniyatini kengaytirishda mehnat bozorida o'rta bo'g'in kadrlarini ish bilan bandligini ta'minlashga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;

ta'limning xalqaro standart klassifikatori darajalariga asoslangan o'z yo'nalishi bo'yicha ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislarni mehnat bozorida ishga qabul qilish tizimini takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

mehnat bozorida kasb-hunarga ega bo'lgan kadrlarni ish bilan ta'minlashning uzoq muddatli strategik rivojlanish yo'nalishlari yuzasidan ilmiy asoslangan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obyektini** O'zbekiston Respublikasi mehnat bozori va professional ta'lim tizimi tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmetini** professional ta'lim tizimi bilan mehnat bozori o'rtasidagi transformatsiya jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmuasi tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida: tizimli tahlil, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhlash, ekonometrik tahlil va prognozlash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

professional ta'lim tizimida xususiy sektorning kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlashni tizimli yo'lga qo'yish, jumladan, jarayondagi har bir subyektga majburiyatlarni yuklash va maxsus onlayn platformaga ko'ra mehnat bozori uchun malakali kadrlar tayyorlashning maqsalga muvofiqligi asoslangan;

mehnat bozorida o'rta bo'g'in kadrlarini ish bilan bandligini ta'minlash uchun professional ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikka asoslangan nazariy va amaliy ko'nikmalarni bir vaqtning o'zida shakllantirish mexanizmi ishlab chiqilgan;

milliy malaka tizimini to'laqonli joriy etish maqsadida professional ta'lim muassasalari bitiruvchilarining mehnat bozorida o'z yo'nalishi va malaka darajasi bo'yicha ishga joylashish imkoniyatini kengaytirishda "mashg'ulotlarning milliy standart" klassifikatsiyasini ishlab chiqish asoslab berilgan;

mehnat bozorida ish o'rinlarini malakali o'rta bo'g'in kadrlari bilan ta'minlash ta'limning xalqaro standart klassifikatori darajalariga asoslangan, o'z yo'nalishi bo'yicha ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislarni ishga qabul qilish tizimini yo'lga qo'yish orqali takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

mehnat bozorida o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan ehtiyojni aniqlashning maqsadli uslubiyoti takomillashtirilgan;

mehnat bozorida o'rta bo'g'in kadrlari ish bilan bandligini ta'minlashning "Dual ta'lim" shaklini joriy etish mexanizmi ishlab chiqilgan;

mehnat bozorida ish o'rinlarini malakali o'rta bo'g'in kadrlari bilan ta'minlash va bitiruvchilar bilimni yakuniy baholashda ish beruvchilarning ishtirokini kengaytirish taklif etilgan;

mehnat bozoriga o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash va ta'lim xizmatlarini ko'rsatishda tabaqalashgan professional ta'lim muassasalari tarmog'ini joriy qilish asoslangan;

professional ta'lim muassasalari bitiruvchilarini mehnat bozori malakalariga oid yagona ochiq elektron platformasini tashkil etishning zamonaviy mexanizmi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosalardan davlat boshqaruv organlari faoliyatida tomonidan foydalanilganligi, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot jarayonida olingan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan aholiga ijtimoiy xizmatlar, xususan, oliy ta'lim tizimi samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan maxsus ilmiy tadqiqot ishlarida manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi va boshqa davlat boshqaruvi organlari uchun tahliliy tavsiyalar tayyorlashda, oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan "Mehnat iqtisodiyoti", "Mehnatni tashkil etish va boshqarish", "Mehnat munosabatlari", "Xalqaro mehnat standartlari", "Mehnat

bozori iqtisodiyoti”, “Empirik iqtisodiyot” fanlari bo‘yicha ishchi-o‘quv dasturlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ta’lim tizimida mehnat bozori va professional ta’lim sohasini rivojlantirish jihatlari va yo‘nalishlari bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

professional ta’lim tizimida xususiy sektorning kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini aniqlashni tizimli yo‘lga qo‘yish, jumladan jarayondagi har bir subyektga majburiyatlarni yuklash va maxsus onlayn platformaga ko‘ra mehnat bozori uchun malakali kadrlar tayyorlash taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiya-sini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni ilovasining 148-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 03/11-2082-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ushbu taklif milliy iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar kesimida o‘rta bo‘g‘in kadrlari tayyorlash va ular bandligini ta’minlash samaradorligining ortishiga va mehnat bozorida o‘rta bo‘g‘in kadrlariga bo‘lgan talab va taklif o‘rtasidagi nomuvofiqlik darajasining qisqarishiga muayyan darajada xizmat qilgan;

mehnat bozorida o‘rta bo‘g‘in kadrlarini ish bilan bandligini ta’minlash uchun professional ta’lim muassasalari va ish beruvchilar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikka asoslangan nazariy va amaliy ko‘nikmalarni bir vaqtning o‘zida shakllantirish mexanizmi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 163-son “Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida”gi qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 23-fevraldagi 01/00-02/10-1082-son ma’lumotnomasi). Taklifning joriy qilinishi natijasida o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlash va ularni bandligini ta’minlashda dual ta’lim shaklida nazariy va amaliy ko‘nikmalarni bir vaqtda shakllantirish mexanizmi mehnat bozori ishtirokchilari uchun samarali yechim ekanligi o‘z tasdig‘ini topib, o‘z navbatida, 2021-yilda 63 ta ta’lim muassasasida (TM) 2125 nafar o‘quvchi o‘qigan va TM, korxonalar o‘rtasida shartnomalar soni 1537 ta bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda TM soni 148 tani, o‘quvchilar soni 5954 nafarni, korxonalar bilan tuzilgan shartnomalar soni 1865 tani tashkil qilgan;

milliy malaka tizimini to‘laqonli joriy etish maqsadida professional ta’lim muassasalari bitiruvchilarini mehnat bozorida o‘z yo‘nalishi va malaka darajasi bo‘yicha ishga joylashish imkoniyatini kengaytirishda “mashg‘ulotlarning milliy standart” klassifikatsiyasi bo‘yicha taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni ilovasining 145-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-

avgustdagi 03/11-2082-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, mehnat bozoridagi kasb va lavozimlar hamda ularning malaka darajalarining muvofiqligini ta'minlash hamda xalqaro mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlashga erishilgan;

mehnat bozorida ish o'rinlarini malakali o'rta bo'g'in kadrlari bilan ta'minlashning ta'limning xalqaro standart klassifikatori darajalariga asoslangan o'z yo'nalishi bo'yicha ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislarni ishga qabul qilish tizimini yo'lga qo'yish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-maydagi 287-son "O'zbekiston Respublikasida kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to'g'risida"gi qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka Ramkasi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 23-fevraldagi 01/00-02/10-1082-son ma'lumotnomasi). Natijada, mamlakatimiz mehnat bozoriga o'rta bo'g'in kadrlarini tabaqalashgan professional ta'lim muassa-salari tarmog'ini shakllantirish imkoniyati, tabaqalashgan professional ta'lim bo'yicha o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan mehnat bozoridagi ehtiyojning salmoqli ulushi boshlang'ich (33 foiz) va o'rta (25 foiz) professional ta'lim talab etiladigan kasblar ekanligi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta (2 ta xorijiy jurnalda, 3 tasi respublika ilmiy jurnallarida) ilmiy maqola e'lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 145 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi, hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiya ishining "**Mehnat bozori transformatsiyasida professional ta'limni rivojlantirishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida mehnat bozorida o'rta bo'g'in kadrlari tayyorlash tizimi rivojlanishining asosiy mezonlari, ko'rsatkichlari, professional ta'lim tizimi integratsiyasining metodologik yondashuvlari hamda mehnat bozorida professional ta'limning mutanosibligini ta'minlashning xorijiy mamlakatlar tajribasi yoritib berilgan.

Mehnat bozorining shakllanishi, rivojlanishining turli bosqichlarida ishchi kuchining sifati, kadrlar tayyorlash darajasi va professional ta'limga nisbatan ijtimoiy-mehnat munosabatlarining mos ravishda o'zgarib, takomillashib borishini kuzatish mumkin bo'ladi. Zamonaviy iqtisodiy munosabatlar tizimida mehnat bozorida ish beruvchi va ishchi o'rtasida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar mehnat bozori va professional ta'lim to'g'risidagi ilk nazariyalardan tubdan farqlanadi. Jumladan, bugungi kunda mehnat bozori ish beruvchi va yollanma ishchilar o'rtasida davlat va jamoat tashkilotlarining aholini ijtimoiy himoya qilish borasida amalga oshirayotgan siyosatlari doirasida, ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifga asoslangan holda ish haqi to'lanadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni o'z ichiga oladi.

Mehnat bozorining amal qilish sharoitida uning o'rta bo'g'in kadrlari tayyorlash tizimi bilan o'zaro munosabatlarini tahlil qilishda, avvalo, mehnat bozorini tashkil etuvchi elementlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Iqtisodchi olim I.V. Geletaning fikricha, mehnat bozori amal qilishining tarkibiy elementlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- mamlakatdagi mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy-institutsional asoslar. Jumladan, mehnat bozori ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar, mehnat shartnomalari va h.k.;

- mehnat bozori konyunkturasi, mehnat bozoridagi ishchi kuchiga bo'lgan talab va uning taklifi o'rtasidagi nisbatlar;

- mehnat bozori infratuzilmasi;

- mehnat bozori ishtirokchilari (ish beruvchilar, ishchi kuchi, mehnat bozori rivojlanishini tartibga solishda ishtirok etuvchi davlat va nodavlat tashkilotlari, kasaba uyushmalari, ijtimoiy sug'urta fondlari va h.k.);

- mehnat bozoridagi raqobat, jumladan, ish beruvchilar va ishchi kuchi o'rtasidagi sog'lom raqobat kurashi;

- mehnat bozorining moslashuvchanligi va ishchi kuchining mobilligi.<sup>7</sup>

Mahalliy iqtisodchi olimlardan Q. Abdurahmonovning ta'kidlashicha, "mehnat bozorida talab va taklif qonuni bo'sh ish joylari mehnat bozoriga kelgan xodimlar tarkibining miqdor va sifat ko'rsatkichlariga nomuvofiqligini aks ettiradi. Ushbu qonunga muvofiq, mehnat bozori bozor tomonidan tartibga solinadi, ya'ni muvozanat holati o'rnatiladi"<sup>8</sup>. Q. Abdurahmonov tadqiqotlari natijalarida ham mehnat bozorida kadrlarga, jumladan, o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan talab va taklifning miqdor va sifat ko'rsatkichlari o'rtasidagi nomuvofiqlikning mavjudligiga e'tibor qaratilganligini kuzatishimiz mumkin. Bu esa, o'z navbatida, kadrlar tayyorlash tizimida mehnat bozori talablariga mos keladigan o'rta bo'g'in kadrlar amaliyotini takomillashtirish zaruriyatini

---

<sup>7</sup> Гелета И.В. Взаимосвязь рынка труда и рынка образовательных услуг. Региональная экономика: теория и практика. № 2 (95) – 2009. с. 79-84

<sup>8</sup> Abdurahmonov Q. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / Darslik. Qalandar Abdurahmonov. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. -T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "FAN" nashriyot davlat korxonasi, 2019. - b. 139

yuzaga keltiradi. Shu bilan birgalikda, olim mehnat bozori amal qilishining quyidagi prinsiplarini ajratib ko'rsatadi:

- "zamonaviy yuqori texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarish talablariga javob beradigan ishchi kuchini takror hosil qilishda muhim rol o'ynaydi;

- mehnat resurslarini taqsimlash va qayta taqsimlashni ta'minlaydi, ulardan samarali foydalanishni rag'batlantiradi;

- xodimlarning o'z kasbiy tayyorgarligini oshirish, qo'shimcha kasblarni egallashdan manfaatdorligini oshiradi;

- ish kuchi harakatchanligini oshiradi, uning tarmoqlar va hududlararo, shu jumladan, chet ellarga migratsiyasini kuchaytirish orqali ish bilan bandlik darajasini oshirishga xizmat qiladi;

- mehnatga haq to'lashda bozor mexanizmlari amal qilishini ta'minlaydi, bu esa, xodimlarning mehnat motivatsiyasini kuchaytiradi;

- aholining qaror topayotgan bozor munosabatlariga moslashishini tezlashtiradi"<sup>9</sup>.

Dissertatsiya ishining "**Mehnat bozoriga o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlashning holati va rivojlanishi**" deb nomlangan ikkinchi bobida mehnat bozoriga malakali kadrlar tayyorlash holati, tendensiyalari tahlil etilgan. Mehnat bozoriga o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlashga bo'lgan ehtiyojni aniqlash uslubiyoti hamda ularni ish bilan bandligini ta'minlashga ta'sir etuvchi omillar baholangan.

Mamlakatda mehnat bozorida kadrlarga, jumladan, o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan ehtiyojni aniqlashda yuqorida taraqqiy etgan mamlakatlarda bo'lgani singari iqtisodiyotni raqamlashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatizatsiyalash kabi ko'rsatkichlar inobatga olinmaydi. Jumladan, mehnat bozoriga o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlashda ish beruvchi tomonidan kasb-hunar ma'lumotli xodimlarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar to'laligicha inobatga olinmaydi. Aksariyat holatlarda mehnat bozorining o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlashda respublika va uning hududlari kesimida mavjud bo'lgan, jumladan, yangidan ochilishi rejalashtirilayotgan bo'sh ish o'rinlari soni va aholining yosh tarkibi bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarga asoslaniladi. Mamlakatda 2016-2021-yillarda aholi, jumladan, yoshlarning ish bilan bandligini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar natijasida mehnat organlari tomonidan kasb-hunarga o'qitishga yo'naltirilgan fuqarolar soni qariyb 9,0 barobarga, ishsiz bo'lgan o'rta bo'g'in kadrlarini jamoat ishlariga jalb etish 65 barobarga ortgan.<sup>10</sup>


Muallifning ta'kidlashicha, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarida mehnat bozoriga o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash bo'yicha ehtiyojni aniqlash uslubiyotini takomillashtirish zarur, degan xulosaga kelindi. Bunda mehnat

---

<sup>9</sup> O'sha manba.

<sup>10</sup> Tagayev B. 2016-2021-yillarda mehnat bozorida amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar sharhi. <https://review.uz/oz/post/2016-2021-yillarda-mehnat-bozorida-amalga-oshirilgan-ishlar-va-erishilgan-natijalar-sharhi>

bozoriga o'rtta bo'g'in kadrlarini tayyorlash bo'yicha ehtiyojlarni aniqlashning jahon amaliyotiga asoslanilgan, jumladan, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, mehnat bozoridagi aholining ish bilan bandligiga xos bo'lgan xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan maqsadli baholash uslubiyoti ishlab chiqildi (1-rasmga qarang).



**1-rasm. Mehnat bozorida o'rtta bo'g'in kadrlariga bo'lgan ehtiyojni aniqlashning maqsadli uslubiyoti va uning tarkibiy komponentlari<sup>11</sup>**

Mamlakat va uning hududlari kesimida o'rtta bo'g'in kadrlariga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlashda o'zaro mehnat bozorini tartibga solishda mas'ul tashkilotlar hamkorligining yo'lga qo'yilishi kadrlar tayyorlashning mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha o'rtta va uzoq muddatli strategiyalarda belgilangan ustuvor maqsad va vazifalarga mosligini ta'minlash imkonini beradi va samaradorligini oshiradi.

<sup>11</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

Mehnat bozorida oʻrta boʻgʻin kadrlariga boʻlgan ehtiyojni aniqlashning maqsadli uslubiyoti asosida amalga oshiriladigan hisob-kitoblarda baholashning quyidagi usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq:

- soʻrovnoma oʻtkazish (ish beruvchilar va kasb-hunar maʼlumotli kadrlar, jumladan, band boʻlganlar va ishsizlar oʻrtasida);

- tarmoq va hududlar kesimida oʻrta boʻgʻin kadrlari bandligi boʻyicha mehnat balansini taʼminlash boʻyicha iqtisodiy-matematik usullar asosida prognoz koʻrsatkichlar ishlab chiqish;

- ilmiy abstraksiya va mantiqiylik usullari.

Muallifning fikricha, taklif etilayotgan mehnat bozorida oʻrta boʻgʻin kadrlariga boʻlgan ehtiyojni aniqlashning maqsadli uslubiyotini yuqorida keltirilgan talablar asosida shakllantirilishi milliy iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar kesimida oʻrta boʻgʻin kadrlarining mehnat balansini, oʻrta boʻgʻin kadrlarini tayyorlash va ular bandligini taʼminlash samaradorligi ortishiga, oʻrta boʻgʻin kadrlariga boʻlgan talab va taklif oʻrtasidagi nomuvofiqlik darajasining qisqarishiga xizmat qiladi.

Mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarida mehnat bozoriga oʻrta boʻgʻin kadrlarini tayyorlash boʻyicha ehtiyojni aniqlashda ish beruvchi va professional taʼlim muassasalari oʻrtasidagi hamkorlik aloqalarini kuchaytirish zarur.


Hamkorlik aloqalarini amalga oshirishda har bir subyekt-taʼlim muassasalari va ish beruvchilar ayrim majburiyatlarni bajarishlari zarur boʻladi. Taʼlim muassasalari taʼlim dasturlarini ish beruvchi bilan birgalikda yaratishi, kasblar boʻyicha metodik taʼminotni yaratish, nazariy taʼlimni tashkil etishi hamda malakali kadrlar tayyorlashga birlashtirilgan ustozlarning malakasini muntazam ravishda oshirib turishi kerak.

Mamlakatda ish beruvchi subyektlarga zarur boʻlgan kasb va mutaxassisliklar boʻyicha oʻrta boʻgʻin kadrlariga boʻlgan ehtiyojni aniqlashda ushbu yoʻnalishda masʼul boʻlgan vazirlik va tashkilotlar oʻrtasida oʻzaro hamkorlikni yagona onlayn platformada amalga oshirish mumkin boʻladi.

Oʻrta boʻgʻin kadrlariga boʻlgan ehtiyojni aniqlashda buyurtmalarni shakllantirishda mehnat bozori talabini hisobga olish zarur hisoblanadi.

Mamlakatda oʻrta boʻgʻin kadrlarga boʻlgan buyurtmalarni shakllantirishni Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Savdo-sanoat palatasi oʻrtasida yagona bir tizimga keltirilgan platforma orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq boʻladi (2-rasm). Tashkil etiladigan platformada kelgusi 3 yilda talab yuqori boʻladigan kasb va mutaxassisliklarga ehtiyoj, prognozi va qisqacha tavsifi keltirilishi hamda kelajakdagi istiqbolli ish oʻrinlaridagi oʻrtacha oylik ish haqqi, istiqbolli ish oʻrinlari boʻyicha kadrlar tayyorlaydigan taʼlim tashkilotlari, ularning toʻliq maʼlumoti hamda ushbu taʼlim muassasalariga oʻqishga kirish talablari va tartibi boʻyicha maʼlumotlar keltirilishi zarur.

Shuningdek, ish oʻrinlariga qoʻyiladigan malaka talablari, korxonalar va tashkilotlarning oʻrta boʻgʻin kadrlariga boʻlgan ehtiyoji toʻgʻrisidagi maʼlumotlar yoritilgan boʻlishi kerak.



## 2-rasm. Kadrlarga bo'lgan ehtiyojni aniqlashning yangi tizimi

So'nggi yillarda jahon miqyosida yoshlar o'rtasida ishsizlikning vujudga kelish sabablarini o'rganishga bag'ishlangan keng ko'lamlı tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tomonidan bu borada amalga oshiriladigan tadqiqotlarda yoshlarning ish topishi bo'yicha "umidsizlik daradasi (Discouragement rate)" ko'rsatkichiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu ko'rsatkich yoshlarning, jumladan, o'rta bo'g'in kadrlarining o'zlariga munosib ish o'rinlarini topishlari uchun uzoq vaqt sarflashlari oqibatida yoshlar o'rtasida umidsizlikka tushib qolish holatlarini tavsiflaydi.

Tahlillarga ko'ra, bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlar guruhida O'zbekistonda yoshlarning, jumladan, o'rta bo'g'in kadrlarining "umidsizligi darajasi" nisbatan yuqori bo'lib, ushbu ko'rsatkich 15-24 yoshli aholi o'rtasida 5 foizga yetgan. Aksariyat bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan rivojlanayotgan mamlakatlar guruhida ushbu ko'rsatkich 2,5 foizdan past hisoblanadi.<sup>12</sup>

<sup>12</sup> Honorati, Maddalena Marguerie, Alicia Charlena. Youth Employment in Uzbekistan: Opportunities and Challenges. Washington, D.C.: World Bank Group. September – 2021. p. 89. ma'lumotlari asosida tuzilgan. <https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/235891634705237783/youth-employment-in-uzbekistan-opportunities-and-challenges>

## 1-jadval

### O‘zbekistonda 15-24 yoshdagi aholining ish topishdagi “umidsizlik darajasi” ko‘rsatkichi, (2021-yil foizda)<sup>13</sup>

Ko‘rsatkichlar	Aholi yoshi va gender ko‘rsatkichi bo‘yicha		Farqlanish
25-29 yoshdagilar	Erkaklar	Ayollar	Erkaklarga nisbatan ayollarda umidsizlik 40 foizga yuqori
	3,4	4,8	
Respublika hududlari kesimida			
Hududlar	Qishloq joylarda	Shaharlarda	Qishloq joylarda umidsizlik dara-jasi shaharlarga nisbatan qariyb 50 foizga yuqori
	4,6	2,4	

Keltirilgan 1-jadvalda mamlakat aholisi tarkibida yosh ayollar orasida, shu bilan birgalikda, qishloq joylarida yosh o‘rta bo‘g‘in kadrlarning umidsizlik darajasi nisbatan yuqori ekanligi bilan xarakterlanadi. Tahlillarga ko‘ra, mamlakatimizdagi jami 25-29 yoshdagi aholi tarkibida ayollarda umidsizlik darajasi erkaklarga nisbatan 40 foizga yuqori bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich qishloq hududlarida shaharlarga nisbatan qariyb 50,0 foizga yuqori ekanligi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birgalikda, mamlakatda iqtisodiy nafaol aholi o‘rtasida 15-24 yoshlilarda umidsizlik darajasi 7,5 foizni, 25-29 yoshdagilarda 10,3 foizni, 25-29 yoshdagi erkaklarda esa, 26,0 foizni tashkil etadi. Ushbu holat umidsizlik darajasi mamlakatda iqtisodiy nofallik darajasining ortishiga sabab bo‘layotganini anglatadi.

## 2-jadval

### O‘zbekistonda turli ta‘lim darajasiga ega bo‘lgan yoshlarning mehnat bozoridagi ishtiroki bo‘yicha ko‘rsatkichlari (mos ta‘lim darajasiga ega bo‘lgan aholi soniga nisbatan foizda, 2021-y.)<sup>14</sup>


Ta‘lim darajasi	Ishsizlik darajasi			Mehnat bozoridagi ishtiroki			Bandlik darajasi		
	Jami	Erkaklar	Ayollar	Jami	Erkaklar	Ayollar	Jami	Erkaklar	Ayollar
Boshlang‘ich ta‘lim va tugallanmagan o‘rta ta‘lim	13,7	16,8	12,6	3,5	2,0	4,8	3,0	1,6	4,2
Tugallangan o‘rta ta‘lim	10,5	7,4	15,1	11,0	14,0	8,3	9,9	12,9	7,1
Professional ta‘lim	6,9	1,6	14,9	59,1	77,1	43,7	55,0	75,8	37,2
Oliy ta‘lim	9,0	3,7	17,2	70,1	85,0	55,1	63,8	81,9	45,6
Oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim	3,8	2,7	6,1	71,1	77,7	60,9	68,3	75,6	57,2

Tahlillarga ko‘ra, mamlakatda o‘rta bo‘g‘in kadrlarining mehnat bozoridagi ishtiroki oliy ma‘lumotli kadrlarga nisbatan 11,0 foizga past bo‘lib, bunda o‘rta ma‘lumotli ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki ko‘rsatkichi mos ravishdagi

<sup>13</sup> O‘sha manba


<sup>14</sup> Honorati, Maddalena Marguerie, Alicia Charlena. Youth Employment in Uzbekistan: Opportunities and Challenges. Washington, D.C.: World Bank Group. September – 2021. p. 89. ma‘lumotlari asosida tuzilgan. <https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/235891634705237783/youth-employment-in-uzbekistan-opportunities-and-challenges>

ma'lumotga ega bo'lgan erkaklarga nisbatan qariyb 1,8-martaga kam bo'lib, o'rta ma'lumotli ayollarning ishsizligi darajasi erkaklarga nisbatan 9,3-martaga yuqori hisoblanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mamlakatimiz aholisining ma'lumoti darajasi ortib borgani sari ularning mehnat bozoridagi ishtiroki va bandligi darajasi ko'rsatkichlari sezilarli darajada ijobiy tarafga o'zgarish xususiyatiga ega hisoblanadi (2-jadvalga qarang).



**3-rasm. O'zbekistonda ish beruvchilar tomonidan o'rta bo'g'in kadrlarini ishga yollashda duch kelinadigan muammolar, foizda<sup>15</sup>**

Keltirilgan 3-rasmda mamlakatda o'rta bo'g'in kadrlarini ishga yollashda ish beruvchilar ayrim muammolarga duch kelmoqdalar. Jahon banki tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mamlakatimizda o'rta bo'g'in kadrlarini ishga yollashda eng ko'p duch kelinadigan muammolar bu ishchilarning yetarli kasbiy ko'nikma va ish tajribasiga ega emasligi bilan birgalikda, tegishli kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lmagan xodimlarning ish beruvchidan yuqori ish haqi talab qilishlaridir.




**4-rasm. O'zbekistonda ish beruvchilar tomonidan o'rta bo'g'in kadrlarini ishga yollashda nomzodlarni ishga olmaslik sabablari, foizda<sup>16</sup>**

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mamlakatda ishga joylashish bo'yicha yoshlar, jumladan, o'rta bo'g'in kadrlari tomonidan berilgan arizalarning rad etilishiga aksariyat holatlarda tegishli ish stajiga ega emasligi, tegishli kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga ega emasligi holatlarini keltirish mumkin bo'ladi (4-rasmga qarang).

<sup>15</sup> O'sha manba

<sup>16</sup> O'sha manba

Mehnat bozorida o‘rta bo‘g‘in kadrlarining ish bilan bandligini ta‘minlashga ta‘sir etuvchi omillarni tadqiq etish asosida mamlakatimizda professional ta‘lim muassasalari va ish beruvchilar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikka asoslangan “Dual ta‘lim” shaklini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz (5-rasmga qarang).



**5-rasm. “Dual ta‘lim” shakli va uning tarkibiy tuzilishi<sup>17</sup>**

Taklif etilayotgan o‘rta bo‘g‘in kadrlarni tayyorlash va ularning bandligini ta‘minlash samaradorligini oshirishga qaratilgan professional ta‘lim muassasalari bilan ish beruvchilarning o‘zaro hamkorligiga asoslangan “Dual ta‘lim” shaklini joriy qilgan professional ta‘lim muassasalariga quyidagi masalalar bo‘yicha bo‘ysunuvidagi vazirlik yoki idoralar bilan kelishilgan holda mustaqil qaror qabul qilish vakolatini berish lozim:

- dual ta‘limga tegishli bo‘lgan kasblar va mutaxassisliklar bo‘yicha qabul parametrlarini tasdiqlash;
- dual ta‘limning o‘quv rejasiga muvofiq belgilangan fanlar bo‘yicha o‘qitish materiallari to‘plamlarini, elektron ta‘lim resurslarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

<sup>17</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

- ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda dual ta'lim uchun zarur bo'ladigan o'quv adabiyotlar, shu jumladan, xorijiy o'quv adabiyotlar va qo'llanmalarni xarid qilish;

- dual ta'lim shaklidagi guruhlarda ta'lim olayotgan o'quvchilar o'qishini bir ta'lim muassasasidan boshqa ta'lim muassasasidagi dual ta'lim shaklidagi guruhga ko'chirishni o'zaro kelishuv asosida hal etish;

- ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llay oladigan yuqori malakali mahalliy hamda xorijiy mutaxassislarni shartnoma asosida jalb qilish, ular mehnatiga haq to'lash miqdorlarini ichki imkoniyatlar hamda bozor konyunkturasiidan kelib chiqib belgilash;

- o'quvchilarni dual ta'lim shaklida to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatini, to'lov-kontrakt mablag'larini to'lash muddatlarini belgilash;

- professional ta'lim muassasasining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, o'quvchilar uchun stipendiya yoki moddiy rag'batlantirishlar joriy etish.

Muallifning fikricha, taklif etilayotgan o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash va ularning bandligini ta'minlash samaradorligini oshirishga qaratilgan professional ta'lim muassasalari bilan ish beruvchilarning o'zaro hamkorligiga asoslangan "Dual ta'lim" shakli mamlakatda o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash samaradorligini oshirish bilan birgalikda, ushbu ta'lim dasturida o'quvchilarga yetarli darajada kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarning berilishi orqali ish beruvchilar uchun zaruriy malakaviy darajaga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash uchun zamin yaratadi. Shu bilan birgalikda, o'rta va uzoq muddatli istiqbolda mamlakat mehnat bozorida o'rta bo'g'in kadrlarga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi o'zaro mutanosiblikni ta'minlagan holda, mehnat balansiga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Tadqiqot ishining **"Mehnat bozorida professional ta'limga ega bo'lgan kadrlarni ta'minlash mutanosibligi"** deb nomlangan uchinchi bobida mehnat bozorida o'rta bo'g'in kadrlarini ishga joylashtirish mexanizmi, ularni tayyorlashni tashkil etish va uni rivojlantirish hamda kasbiy ta'lim darajasiga ega kadrlarni ish bilan ta'minlashning uzoq muddatli strategik yo'nalishlari yoritilgan.

O'zbekistonda "2023-yildan boshlab yangi dastur amalga oshiriladi. Har bir viloyatda 1 tadan texnikumda Yevropa kasbiy ta'lim standartlari joriy etiladi. Kelgusi besh yilda barcha kollej va texnikumlar ushbu tizim bilan qamrab olinishi"<sup>18</sup> belgilandi. Bugungi kunda mamlakat ta'lim tizimida o'rta bo'g'in kadrlarni tayyorlashda: aholiga makatabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim va professional ta'lim bosqichlarida ta'lim xizmatlari ko'rsatiladi. Mamlakat mehnat bozoriga o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash va ularning ish bilan bandligini ta'minlash masalalari bevosita demografik vaziyatlarning rivojlanishi bilan bog'liq hisoblanadi.

---

<sup>18</sup> Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2022-yil 20-dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>

**O‘zbekistonda amaldagi ta’lim dasturlari va ta’limning xalqaro standart klassifikatori darajalariga muvofiqligi<sup>19</sup>**

MSKO (ta’limning xalqaro standart klassifikatori)	O‘zbekistonda amaldagi holat	Xalqaro tajriba asosida taklif
<b>MSKO 0</b>	Maktabgacha ta’lim	Kichik yoshdagi bolalar ta’limi
<b>MSKO 1</b>	Boshlang‘ich ta’lim	Boshlang‘ich ta’lim
<b>MSKO 2</b>	Umumiy o‘rta ta’lim	Umumiy o‘rta ta’lim
<b>MSKO 3</b>	O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi	Boshlang‘ich professional ta’lim (kasb-hunar maktabi)
<b>MSKO 4</b>	–	O‘rta professional ta’lim (kollej)
<b>MSKO 5</b>	–	O‘rta maxsus professional ta’lim (texnikum)
<b>MSKO 6</b>	Bakalavriat	Bakalavriat
<b>MSKO 7</b>	Magistratura	Magistratura
<b>MSKO 8</b>	Doktorantura	Doktorantura

Tahlillarga ko‘ra, mamlakat ta’lim tizimida mehnat bozoriga o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlash amaliyoti aholiga ta’lim xizmatlari ko‘rsatishning jahon amaliyotidan birmuncha farq qiladi. Mehnat bozoriga o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlashning jahon amaliyotini tahlil qilish asosida mamlakatimizda keyingi yillarda ta’lim dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bunda ta’limning xalqaro standart klassifikatori darajalariga asoslanish lozim bo‘ladi (3-jadvalga qarang).

Mehnat bozori uchun ishchi va o‘rta bo‘g‘in kadrlarni tayyorlashda mashg‘ulotlarning xalqaro standart tasniflagichi asosida milliy klassifikatorning o‘zaro integratsiyasini ta’minlash bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuning uchun, mashg‘ulotlarning xalqaro standart tasniflagichining mohiyatini ham tushunib olish zarur.

